



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



[МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ, ПОСВЯЩЕННАЯ РОЛИ И ЗНАЧЕНИЮ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В 21 ВЕКЕ \(researchgate.net\)](#)

11. Ширинова, Е. Т. 2023. «Некоторые соображения о коммуникации». Узбекистан: язык и культура. Вопросы прикладной филологии. 1(5): 84-91. Получено с <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/84-91> :: <https://www.::org/10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/EFEZ1339>

12. Shirinova, Y. (2024). НЕКОТОРЫЕ ПРИНЦИПЫ И ПОДХОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В МНОГОЯЗЫЧНОЙ И ПОЛИКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЕ. *Uzbekistan Language and Culture*, 1(01). Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/110>

13. Shirinova, Y. (2024). КОНФЛИКТНОЕ ОБЩЕНИЕ: ФАКТОРЫ, ПРИЧИНЫ, НЕКОТОРЫЕ ПУТИ ПРЕОДОЛЕНИЯ. *Uzbekistan Language and Culture*, 2(02). Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/113>

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/KUWE1329

JADID ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODINI O'RGANISH TAJRIBASI

Oymatova Nilufar Mirjamolovna

Profı universiteti o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
nilufar.oymatova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid adabiyotini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiyning ijodini o'rganish jarayonida interaktiv metodlar, multimedia vositalaridan foydalanish tajribasi o'rganiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida talabalar bilimini mustahkamlash, ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va milliy ma'naviyatni chuqur anglashga erishish yo'llari ko'rsatilib, asosan, Behbudiy asarlarini o'rganishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligi ilmiy asosda tahlil qilinadi va amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: jadid adabiyoti, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, multimedia vositalari, interaktiv o'qitish, raqamli ta'lim, innovatsion metodlar, mustaqil fikrlash.

Аннотация: В данной статье анализируется значение и возможности использования современных педагогических технологий в преподавании джадидской литературы. В частности, в процессе изучения творчества Махмудходжи Бехбуди изучается опыт использования интерактивных методов и мультимедийных средств. Также показаны пути укрепления знаний студентов с помощью современных технологий, развития их навыков самостоятельного мышления и достижения глубокого понимания национальной духовности, в основном, на научной основе анализируется эффективность инновационных подходов к изучению произведений Бехбуди и даются практические рекомендации.

Ключевые слова: джадидская литература, современные педагогические технологии, мультимедийные средства, интерактивное обучение, цифровое образование, инновационные методы, самостоятельное мышление. Ключевые слова: джадидская литература, современные педагогические технологии, мультимедийные средства, интерактивное обучение, цифровое образование, инновационные методы, самостоятельное мышление.



Abstract: This article analyzes the importance and possibilities of using modern pedagogical technologies in teaching Jadid literature. In particular, in the process of studying the work of Mahmudhoja Behbudi, the experience of using interactive methods and multimedia tools is studied. Also, ways to strengthen students' knowledge using modern technologies, develop their independent thinking skills, and achieve a deep understanding of national spirituality are shown, and the effectiveness of innovative approaches to the study of Behbudi's works is analyzed on a scientific basis and practical recommendations are given.

Keywords: Jadid literature, modern pedagogical technologies, multimedia tools, interactive learning, digital education, innovative methods, independent thinking.

XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati o'zining taraqqiyparvarlik g'oyalari, milliy uyg'onish va ma'rifat targ'iboti bilan o'zbek adabiyoti va madaniyati taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda Behbudiy ijodini o'rganish nafaqat tarixiy-ma'rifiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ta'lim jarayonida yoshlarning ijtimoiy-madaniy ongini shakllantirishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda qabul qilingan "Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, unda Behbudiy faoliyatining har tomonlama tadqiq etilishi, asarlarining o'rganilishi: nashr qilish va keng ommaga targ'ib qilish, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.[6] Ushbu vazifalar jadid adabiyotining o'ziga xos uslubi va jamiyatni uyg'otishga qaratilgan ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib qilishning zarurligini ko'rsatadi.

Davrning dolzarb masalalarini teran aks ettirgan jadid adabiyoti o'ziga xos uslubi, jamiyatni uyg'otishga qaratilgan ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan o'zbek adabiyotining rivojida muhim o'rin tutadi. Behbudiy aynan mazkur adabiy jarayonning yetakchi vakillaridan biri sifatida, o'z asarlari bilan xalqni ma'rifatga chaqirish va ilm-fan yuksalishiga katta hissa qo'shdi. Zotan, uning tarixiy, ilmiy, siyosiy mavzularni qamrab olgan adabiy yoxud publitsistik qarashlari mahsuli istiqloлга olib boruvchi yo'l – ma'rifiy yetuklik ekanini istifoda etgan edi.

Shu sababli, Behbudiy merosining oliy ta'limda chuqurroq o'rganilish masalasi eng dolzarb ta'limiy ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishida "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" moduli uchun jami 180 soat ajratilgan bo'lib undan ma'ruza uchun 30 soat, seminar uchun 30 soat, amaliy mashg'ulot uchun 30 soat, mustaqil ta'lim uchun esa 90 soat ajratilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodiga 6 soat ajratilgan. Ushbu ta'limiy vaqt mobaynida quyidagi mavzular o'rgatiladi:

- Behbudiy hayoti va faoliyatining o'rganilish tarixi.
- Tarjimayi holi.
- Turkistonda jadid maktablarining tolmas targ'ibotchisi va



tashabbuskorlaridan biri.

- Behbudiy va Turkiston milliy matbuoti.
- Ijodiy merosi.
- “Padarkush” pyesasi.
- Publitsistikasi.
- Behbudiyning adabiy-estetik qarashlari.
- “Sayohat xotiralari”.[3]

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bugungi kunda Behbudiy ijodini talabalarga samarali o'rgatish uchun mavjud an'anaviy o'qitish metodlarini zamonaviy raqamli vositalar bilan uyg'unlashtirish zarurati ortib bormoqda. Shu sababli, zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, multimedia vositalarini ta'lim jarayoniga joriy etish Behbudiy asarlarini talabalarga yanada chuqurroq, samarali va interaktiv tarzda yetkazishda katta ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rni beqiyos. Multimedia vositalari – video, audio, interaktiv taqdimotlar, onlayn platformalar va boshqa raqamli resurslar talabalarga tez va samarali ma'lumot yetkazishda katta yordam beradi. Behbudiy asarlarini o'rgatishda, ayniqsa, ularning tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstini talabalarga tushuntirishda raqamli texnologiyalarni qo'llash zarur. Mazkur vositalar yordamida talabalar Behbudiy ijodini yanada chuqurroq anglash hamda ijodkor asarlarini zamonaviy yondashuvda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Behbudiy ijodini o'rgatishda multimedia vositalarini amaliy qo'llash jarayonida qator interaktiv metodlar mavjud. Chunonchi, Behbudiy merosini o'rganishda videodarslar yordamida adib hayoti va ijodiga oid materiallar talabalarga samarali tarzda taqdim etilishi mumkin. Bundan tashqari, Behbudiy asarlari asosida interaktiv testlar, onlayn viktorinalar, virtual ekskursiyalar orqali talabalarga amaliy topshiriqlar berish, ularning adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshirishga erishish ehtimoldan xoli emas. Bunday metodik yozdasheduvlar orqali Behbudiy asarlarini o'rgatish, talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki mustaqil tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va eng muhimi, talaba pedagogik shakllanishining yangi ijodiy qirralari ochilishiga muhim zamin yaratadi.

Behbudiy asarlarini zamonaviy pedagogik usullar va raqamli texnologiyalar yordamida taqdim etish muhimdir. Quyidagi tendensiyalarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Onlayn ta'lim va raqamli platformalardan foydalanish: Behbudiy asarlarini o'rganish uchun zamonaviy onlayn ta'lim platformalarini yaratish va internet-resurslardan foydalanish zarur. Behbudiy asarlari matnlarini onlayn platformalarda taqdim etish, interaktiv testlar va baholash vositalari yordamida talabalarni baholash tizimini joriy etish mumkin. Bu talabalar uchun o'z-o'zini baholash hamda mustaqil o'rganish imkoniyatini yaratadi.

2. Kreativ fikrlash va interaktiv muhokama: Behbudiy ijodini o'rganishda kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlarni qo'llash



muhimdir. Talabalar uchun interaktiv muhokama va forumlar tashkil etish, Behbudiy asarlarining turli xil talqinlarini muhokama qilishni ta'minlash, ularning fikr-mulohazalarini rivojlantiradi va bilimlarining chuqurlashuviga yordam beradi.

3. Integrativ yondashuv: Behbudiy asarlarini o'rganishda bunday yondashuvni qo'llash samarali natijalar beradi. Xususan, ijodkor merosini adabiyotshunoslik, tarix, falsafa, ijtimoiy fanlar va boshqa tegishli sohalar bilan uyg'unlashtirilgan holda tahlil qilish, talabalar uchun chuqurroq kontekst yaratadi hamda ularning keng dunyoqarashga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

4. Interpretatsion yondashuv (Tahliliy-ta'limiy yondashuv): ushbu metod asarni mazmunan, g'oyaviy va estetik jihatdan chuqur tahlil qilishga asoslanadi. Talabalar mavzuni mustaqil o'rganib, shaxsiy fikr bildiradi, zamonaviy kontekstda talqin qiladi. Shuningdek, Behbudiy asarlarini o'qib, undagi ma'rifatparvarlik g'oyalarini hozirgi hayot bilan solishtiradilar. Asarlaridagi har bir obrazni zamonaviy jamiyatdagi real prototipi bilan qiyoslaydilar. Natijada, ular o'z fikrlarini mustahkamlaydi va adabiyotning ijtimoiy-psixologik ahamiyatini tushunadilar.

Adabiyot darslarida Behbudiy ijodiy merosini talabalarga ta'sirchan hamda samarali tarzda o'rgatishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, bu borada, "Konseptual jadval" texnologiyasi qo'llanilishi tavsiya etiladi. Ushbu metod talabalar tafakkurini faollashtirib, asosiy tushunchalar orasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga, shuningdek, mavzuni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi.

"Konseptual jadval" texnologiyasi

Darsning boshlanishida o'qituvchi talabalarga darsning maqsadi va metodologiyasini tushuntirib beradi. Talabalar "Konseptual jadval" metodini qo'llagan holda, Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodini tizimli ravishda o'rganadilar: mavzudagi muhim tushunchalar va fikrlarni tartibga solib, ularning o'rtasidagi aloqalarni aniqlashadi. Mavjud jadvalning har bir bo'limida Behbudiy faoliyatiga oid muhim tushunchalar joylashtirilgan va ular o'rtasidagi aloqalar tahlil qilinadi. Bu metod talabalarni ilmiy fikrlashga undaydi va mavzuni chuqurroq tushunishlarga imkon beradi. Natijada, talabalar Behbudiy hayoti va ijodining turli jihatlarini vaqtini iqtisod qilgan holda, tizimli tarzda o'rganadilar va uning tarixiy ahamiyatini tushunadilar.

Konseptual jadvalda quyidagi asosiy tushunchalar va mavzular ko'rsatilgan:

№	Mavzu	Ma'lumotlar
1.	Mahmudxo'ja Behbudiy	Jadidchilik harakati rahbari Siyosiy, ma'rifiy, madaniy faoliyat
2.	Jadidchilik harakati	Yangi usul maktablari Ijtimoiy islohotlar Milliy g'oya va adabiyot
3.	Siyosiy faoliyat	Behbudiyning siyosiy qarashlari Milliy mustaqillik uchun kurash



- | | |
|---------------------------------|--|
| 4. Madaniyat va ma'rifat | Behbudiyning madaniy va ilmiy faoliyati
Nashriyat va matbuotning roli |
| 5. Ilmiy tadqiqotlar | Behbudiylar ijodiy va faoliyati bo'yicha ilmiy
ishlar |

Bundan tashqari, talabalarning mustaqil izlanishlariga asoslangan munozara, muhokama, shuningdek, loyiha, taqdimot darslari ham oliy ta'lim tizimida eng samarali metodlardan sanaladi. Ayniqsa, loyiha va taqdimot metodlari muayyan yo'nalish – tor :radagi ilmiy izlanishni taqozo etishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Talabaning tor mavzudagi chuqur tadqiqiy izlanishi muayyan tanlangan obyektning har tomonlama o'rganib chiqqan holda, uning tanlangan mavzuni batafsil, to'laqonli o'zlashtirishi hamda asosli xulosalar chiqara olishiga keng imkoniyat yaratadi. Shuningdek, talabalar aynan mazkur metod asosida, Behbudiylar asarlari asosida zamonaviy kontent – video yoki podkast ko'rinishidagi ijodiy mahsulotlar yaratish bilan metodik vositalarni yanada boyitishlari mumkin.

“Loyiha va taqdimot” metodi, amaliy ahamiyatiga ko'ra, talabalarda mustaqil fikrlash, ulardagi tahliliy yondashuv va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida tavsiya etiladi. Aniqki, ushbu metodlar orqali talabalar berilgan mavzu bo'yicha mustaqil izlanadilar, o'zlari tanlagan yo'nalishda ma'lumot to'plash, tahlil qilish va uni auditoriya oldida taqdim etish orqali o'z fikrlarini erkin ifoda etish ko'nikmasini rivojlantiradilar.

Masalan, talabalar kichik guruhlariga bo'linib, quyidagi mavzularda loyiha ishlari tayyorlashlari mumkin:

- “Behbudiylar va jadid maktablari faoliyati”;
- “Padarkush” dramasi yosh avlod tarbiyasidagi ma'rifiy ahamiyati;
- “Behbudiylar publitsistikasida milliy uyg'onish g'oyalari”;
- “Sayohat xotiralari” asarining madaniy va ilmiy tahlili;
- “Behbudiylar merosining bugungi kun yoshlari ongidagi o'rni”.

Har bir guruh o'z loyihasini raqamli formatda – PowerPoint, Canva, Genially kabi platformalarda tayyorlab, taqdimot shaklida sinfda namoyish etadi. Taqdimot yakunida talabalar o'z tengdoshlarining ishlarini muhokama qilishadi, bu esa ularda tanqidiy fikrlash va bahs-munozara olib borish qobiliyatini shakllantiradi.

Bunday yondashuv natijasida talabalar:

- mavzuni mustaqil tahlil qilish;
- mantiqiy va ilmiy fikrlash;
- jamoada ishlash;
- zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
- estetik va vizual taqdimot qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

Shunday qilib, loyiha va taqdimot metodlari orqali Behbudiylar asarlarini o'rganish yanada interaktiv, samarali va ijodiy jarayonga aylanadi. Bu esa zamonaviy pedagogik talablar asosida talabaning mustaqil bilim olishga bo'lgan



ehtiyojini kuchaytiradi, adabiy merosni amaliy hayot bilan bog'lash imkonini yaratadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Behbudiy ijodini o'rgatishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, talabalarga uning asarlarini an'anaviy o'qitish metodlaridan farqli o'laroq, yanada samarali, interaktiv va qiziqarli tarzda yetkazishga yordam beradi. Bundan tashqari, multimedia vositalaridan foydalanish mavzuning o'ziga xos xususiyatlari, real vaqt rejimida muhokama qilish imkoniyatlari, talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi va ularda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliyev A. Mahmudxo'ja Behbudiy. – Toshkent: Xazina, 1994.
2. Alimova D. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. Toshkent: Akademiya, 1999.
3. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi. "O'zbek adabiyoti tarixi" fanining o'quv dasturi. Toshkent – 2023.
4. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. Toshkent: Universitet, 2006.
5. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. –Toshkent: Akademnashr, 2018.
6. Mirziyoyev Sh.M. "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Prezident qarori. PQ-462-son, 27.12.2024-y
7. Qosimov B. Behbudiy va jadidchilik. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1990-yil 19, 26-yanvar.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/ITDX2482

ADABIY ASARNING BADIY MAZMUNINI ANGLASH YO'LLARI

Musurmonkulova Oysulov Yulbekovna

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyoti ta'limi kafedrasida o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi*

Annotatsiya: Maqolada adabiy ta'limda o'quvchilarning lateral-kreativ yondashuv asosida adabiy-tahlil kompetensiyalarni shakllantirish, hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga oid metodik usullar yangi ijtimoiy-madaniy talablarga muvofiq ko'rib chiqilgan. Kuzatilgan adabiy tahlil o'rinlarda o'quvchilar ongining tasvirlari, maxsus ideal shakllanishlar, psixologik kechinmalar va hayoliy obrazga maqsadlarini singdirish yoritilgan. Shuningdek, lateral fikrlashni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlar va bosqichlari tavsiflangan. Adabiy ta'lim jarayonlarida lateral-kreativ savol va topshiriqlar bilan ishlash yuzasidan ayrim tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, bilim, ko'nikma, ijodiy, lateral, tafakkur, usul, nostandart, samaradorlik.

Аннотация: В статье рассматриваются методические подходы к формированию литературно-аналитических компетенций и жизненных навыков учащихся на основе латерально-креативного подхода в литературном образовании в соответствии с новыми социокультурными требованиями. Обсуждаются примеры литературного



<i>NUTQINI BAHOLASH PEDAGOGIK-METODIK MUAMMO SIFATIDA</i>	
<i>Ermatova Durdona Zafarjon qizi. INDUCTIVE AND DEDUCTIVE METHODS IN TEACHING UZBEK AS A FOREIGN LANGUAGE: A COMPARATIVE PEDAGOGICAL ANALYSIS</i>	797
<i>Raxmatullayeva Ruxshona Sherzod Qizi. O'ZBEK MILLIY TAOMLARI NOMLARINING SHEVALARDAGI UMUMIY VA FARQLI JIHATLARI</i>	800
<i>Xudayberdiyeva Orifaxon Rustamjon qizi. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSIKA TUSHUNCHASI</i>	803
VII SHU'BA. TURKIY XALQLAR ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	
<i>Р.Нуёзметова. БАДИЙ АСАРДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ВА ҚАҲРАМОНЛАР ТУЙҒУЛАРИ ИФОДАЛАНИШИНИ ЎРГАНИШ</i>	809
<i>Р.Нуёзметова. O'ZBEK ADABIY TA'LIMIDA XORIJIY METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI</i>	813
<i>Исманова Акибатхан Алимжановна. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ “ЎТКАН КУНЛАР” ВА ТЎЛАГАН ҚОСИМБЭКОВНИНГ “СИНГАН ҚИЛИЧ” АСАРЛАРИДА ХОНЛИКЛАР ДАВРИНИНГ БАДИЙ ТАЛҚИНИ</i>	820
<i>Turakulova Okila Amirkulovna. TA'LIM JARAYONIDA YOSHLARIMIZNING MILLIY O'ZLIGINI ANGLASHIDA BADIY ASARLARNING TUTGAN O'RNI</i>	825
<i>To'uchiyeva Mahfuza Umarkulovna. TA'LIM TIZIMIDA MANTIQUIY FIKRLASHDAN FOYDALINISH MASALASI: O'TMISH VA BUGUN</i>	830
<i>Oymatova Nilufar Mirjamolovna. JADID ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODINI O'RGANISH TAJRIBASI</i>	839
<i>Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna. ADABIY ASARNING BADIY MAZMUNINI ANGLASH YO'LLARI</i>	844
<i>Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi. MAKTAB TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</i>	852
<i>Abdixoliqova Mastona Raxim qizi. XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'QITISHNING INNOVATION VA PSIXOPEDAGOGIK ASOSLARI</i>	857
<i>Abduraxmanova Ilmira Alimjonovna. O'QITUVCHINING “SEHRLI TAYOQCHASI”: FAOLLIKNI OSHIRUVCHI METODLAR TAHLILI</i>	862
<i>Abdusattorova Dilshodabegim. ERTAKLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA ILOVALARINING O'RNI</i>	865
<i>Adashaliyeva Nigora Shuhratjonovna. ADABIY TA'LIMDA INNOVATION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING BADIY-ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	870
<i>Beknazarova Farida Matraxim qizi. 5–6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH</i>	875

